

## MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN TASHKIL ETILADIGAN IJTIMOY PEDAGOGIK FAOLIYAT

**Turg'unboyeva Nodira Baxtiyor Qizi**  
*Oriental universiteti Pedagogika va psixologiya  
yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat o'rganilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, bolalar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar muhim ahamiyati ega.*

**Tayanch so'zlar:** *pedagogik faoliyat, umumiy o'rta ta'lim, islohot, konsepsiya, madaniyat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, farmon, qobiliyat, tizim, moliyaviy menejment, ta'lim sektori.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz maktab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to'xtalib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"dagi Farmoni, "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha yagona elektron platforma yaratiladi hamda har bir 5-11-sinf o'quvchisi uchun elektron "Ish daftari" joriy etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"dagi Farmoni, "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha yagona elektron platforma yaratiladi hamda har bir 5-11-sinf o'quvchisi uchun elektron "Ish daftari" joriy etiladi. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ular kasbga yo'naltiriladi va o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi maktab ta'limi sohasida olib borilayotgan islohotlar

Ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari uning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va pedagogikasi, shuningdek, jahon xalqlari pedagogikasining ilg'or yutuqlari asosida

ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda o'qituvchilar, pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar ochib berish va uni har tomonlama rag'batlantirish, bilim va ko'nikmalarining puxtaligini ta'minlaydigan zamonaviy didaktik vositalar qo'llashni keng ko'lamda yo'lga qo'yish, shu asosda ta'lim mazmunini yaxshilashga erishishdan iborat bo'ldi.

Bugungi kungacha o'tgan davr mobaynida O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga va uning taraqqiyot istiqbollari mos keladigan ta'lim tizimini tashkil qilishga olib keldi.

Unda quyidagilar ko'zda tutilgan:

- ta'lim tizimini bozor iqtisodiyotiga va ochiq jamiyatga qayta yo'naltirish;
- aholining turmush farovonligini oshirishning zarur sharti sifatida ta'lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratish;
- ta'lim xizmatlarining barqaror va sifatli ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida ta'lim sohasini moliyalashtirish tizimini yaxshilash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ta'lim sektorining boshqaruvini takomillashtirish.

Prezidentimizning doimiy e'tibori natijasida o'tgan yillar davomida yurtimizda jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Natijada, yuksak xalqaro obro'-e'tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega Evropa va Osiyoning etakchi oliy o'quv yurtlari Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari tashkil etildi hamda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ushbu oliy o'quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mexnat bozorida talabi yuqori bo'lgan mutaxassislar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo'lmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;
- o'quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

- umumta'lim muassasalari umumiy o'rta ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-uslubiy, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Maktabning asosiy maqsadi o'quvchilarni Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash, shaxsning ta'lim olishga doir konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'limda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash va ularni jaxon standartlari darajasiga kutarmoq, lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh maxsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, malakasi mustaxkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mexnatsevar, vatanparvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetishsin. Shuni aloxida ta'kidlash joizki, o'rta maktab O'quvchilarining xammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to'g'ri yo'l tutadi, deb bo'lmaydi, albatga. Ulardan ba'zilari tavakkalliga ish tutsalar, ayrimlari ota ona kasbini tanlaydilar yoki ko'zga tashlanib turgan yaqqol namunalariga taqdid qiladilar, goxo sevimli kishilari izidan borishni mo'ljallaydilar. Ko'pchilik o'quvchilar ta'lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur xosil qiladilar, o'zlari yoqtirgan kasb-xunarlarini o'ylaydilar.

Kasb-hunarga yo'naltirish – umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodni kasbiy tiklanishi, tabiat in'om etgan (tug'ma) qobiliyatlarini rivojlantirishda ko'maklashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora – tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta'lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarda jamiyatning g'amxo'rligi sifatida namoyon bo'ladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ishining bosh maqsadi o'ziga xos usullar yordamida mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholining samarali bandligini oshirishga erishishdan iborat.

Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta'lim yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb – hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.

Maktab yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar.

Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 3 oktyabrdagi 558-son qarori bilan “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi” tasdiqlandi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi etib o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash belgilangan.

Bunda maktab, oila, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini yanada kuchaytirish asosiy vazifa sanaladi.

Maktablardagi mavjud holatni o'rganish va tahlil qilish mezonlari asosida aniqlangan "qizil" toifadagi maktablarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish maqsadida idoralararo hamda keng jamoatchilik hamkorligi tashkil etiladi. Shuningdek, "sariq" toifadagi maktablarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, "yashil" toifadagi maktablar tajribasini keng targ'ib qilish va ommalashtirish choralari ko'riladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi maqsadi o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash hisoblanadi.

Konsepsiyaga ko'ra, maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning beshta asosiy yo'nalishi belgilandi.

Birinchisi - maktab ta'limini umummilliy harakatga aylantirish yo'nalishi bo'lib, maktab jamoasi, ota-onalar hamda jamoatchilikning o'zaro munosabatlarida odob-axloq va ichki tartib-qoidalarga rioya qilinishini talab etadi. Uning doirasida maktablarda "O'zbekiston - Vatanim manim" mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovi, "Davlat ramzlari-faxrim, g'ururim", "Davlat tili-millat ruhi" mavzusidagi tadbirlar, yoshlarning tadbirkor va olimlar, hokim va deputatlar, prokuror va harbiylar bilan uchrashuvlarini uyushtirish, tizimli tahlillar asosida "Namunali maktab direktori", "Namunali ustoz", "Namunali o'quvchi" va "Namunali ota-ona" modellarini ishlab chiqish mo'ljallanmoqda. Ayni paytda, mazkur yo'nalish bo'yicha ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda darsliklarning yangi avlodini yaratish orqali o'quvchilarni ma'naviy yetuk va erkin fikrlaydigan shaxslar qilib tarbiyalash va o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida fidoyi o'qituvchi-murabbiylar faoliyatiga bag'ishlangan yangi badiiy asarlar, filimlar va boshqa ijod namunalarini yaratish hamda ommaviy axborot vositalari, Internet jahon axborot tarmog'ida keng yoritishga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ikkinchi yo'nalish - o'quvchilarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish yo'nalishi doirasida yoshlarga kitob mutolaasi jarayonida "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida badiiy asarlarni tanlash va sinchiklab o'qish malakasini hosil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish, "Kitobxon o'quvchi" va "Notiq o'quvchi" tanlovlarini tashkil etish, "Maktab kutubxonasi", "Jahon bolalar adabiyoti durdonalari" ruknida yuz jildlik kitoblar to'plami nashrini yo'lga qo'yish va yana ko'plab ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Masalan, yurtimizda muntazam ravishda kitobxonlik haftaliklari hamda "Farzandimga kitob sovg'a qilaman" va "Maktab kutubxonasiga kitob sovg'asi" ijtimoiy aksiyalari o'tkaziladi, bolalar uchun ensiklopediyalar, lug'at va alibomlar, badiiy asarlar yaratiladi, iste'dodli ijodkor o'quvchilar tizimli ravishda rag'batlantiriladi.

O'quvchilarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, o'z Vatani va xalqi taqdiri uchun mas'uliyat va javobgarlik hissini oshirishda buyuk ajdodlarimizning jasorati hamda harbiy vatanparvarlikni keng targ'ib etish muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning uchinchi asosiy yo'nalishi buyuk ajdodlar jasorati hamda harbiy vatanparvarlik yo'nalishi sanaladi.

To'rtinchi yo'nalish - Zamonamiz qahramonlari - yoshlarga ibrat timsoli yo'nalishi doirasida zamondoshlarimiz erishgan yutuqlar keng targ'ib etilib, ularga nisbatan ehtirom tuyg'usi shakllantiriladi, bu esa o'quvchilarda chin insoniy fazilatlarini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalish doirasida, xususan, "Zamonamiz qahramonlari" ruknida turkum risolalar, animasion, hujjatli va badiiy filmlar, roliklar yaratiladi va ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etiladi. Maktab kutubxonalari O'zbekiston Qahramonlari, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at namoyandalarining ibratli faoliyati yoritilgan adabiyotlar bilan boyitib boriladi. "Muvaffaqiyatga erishish sirlari" loyihasi doirasida doimiy muloqotlar, ilmiy va ijodiy maktab yaratgan atoqli olim va ijodkorlarning uy-muzeylari hamda ishxonalari sayohat-darslar o'tkaziladi. "Beruniy izdoshlari", "Ulug'bek avlodlari", "Navoiy vorislari", "Zulfiyaxonim qizlari" tanlovlarning samaradorligi oshiriladi.

Beshinchi yo'nalish - maktab, mahalla va oila hamkorligini mustahkamlash yo'nalishi bo'yicha ham ko'plab ta'sirchan chora-tadbirlarning rejasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish ko'zlanmoqda. Bu jabhada an'anaviy - "Uch avlod uchrashuvi" loyihasi doirasidagi muloqotlar, milliy madaniy markazlar vakillari ishtirokidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida uyushtiriladigan xayriya aksiyalarini o'tkazish bilan bir qatorda yangi usul va shakllardan ham foydalanish, masalan, farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati mavzusidagi aforizmlarni "Kun hikmati" ruknida mobil aloqa operatorlari orqali etkazishni tizimli yo'lga qo'yish mo'ljal qilingan. Muammoli oilalarda muhitni sog'lomlashtirish hamda notinch oilalar farzandlarini psixologik qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan choralarini qo'llash bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish rejalashtirilgan.

Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish maktabgacha tarbiya muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik ishdan tubdan farq qiladi. Bu faoliyat o'quvchilarning doimiy kamol topishlari va ta'lim olishlariga bog'liq. Maktabdagi ijtimoiy pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini bir bobda ochib berishning iloji yo'q, shuning uchun biz eng muhim vaziyatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Respublikamizda maktab o'quvchilari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish rivojlanmoqda. U qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik tibbiy, psixologik, yuridik faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoqda. So'nggi yillarda

pedagogik jamoalar ham paydo bo'lib, ularda maktab nafat ta'lim-tarbiya masalalarini balki o'quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolarini ham yechmoqda.<sup>119</sup>

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar - o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchining vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;

- o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarini pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;

- sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, ota-onalar, sinf faollari, uslubiy yordam ko'rsatish;

- umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

O'quvchilar qalbini urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni o'rgatish orqali ulardan odob-axloq nurlarini yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi o'quvchi chuqur bilim, keng maxorat va tarbiyachilik, tashkilotchilik san'atini egallamog'i lozim. Maktabda sinfdan tashqari musiqa to'garaklarini amalga oshirish metodikasi kursining maqsadi:

- bo'lajak o'qituvchi tarbiyachilar, to'garak rahbarlariga tarbiyaga doir tadbirlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslari haqida bilim berish;

- o'quvchilarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda o'zbek xalqining urf-odatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlaridan foydalanish manbashunoslikka o'rgatish;

- ommaviy tadbirlarni rejalashtirishda o'quvchi yoshlarning yosh xususiyatlari qiziqishi, jamoadagi ijobiy va salbiy tomonlarining mavjud darajasiga e'tibor berish;

- tarbiyaviy tadbirlarni sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish kabilar.

Maktab yoshidagi bolalar bilan tashkil etiladigan sport tadbirlari.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi bola shaxsining shakllanish va jismoniy tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Bu fan umumiy jismoniy tarbiya nazariyasining g'oyaviy va metodologik asoslaridan kelib chiqadi va uning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya nazariyasi o'quvchilarda jismoniy barkamollikni, har tomonlama taraqqiy etgan yuksak madaniyat va axloqni tarbiyalash bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda qurishni belgilaydi. Bu amaliy fan o'qituvchisini boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy

<sup>119</sup> Petrovskiy A.B. tahriri ostida: "Psixologiya". Toshkent, "O'qituvchi", 1979

barkamolligining vositalari, shakllari va usullari to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi, unda maxsus va tegishli harakat ko'nikmasi hamda malakalarini shakllantiradi. Shunday qilib, jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiyaning umumiy nazariyasi bilan yagona mazmunga ega bo'lib, jismoniy tarbiyalash qonuniyatlarini hamda shunga muvofiq bolaning ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlantirishni boshqarishning umumiy qonuniyatlarini maxsus o'rganadi.

O'quvchilar jismoniy tarbiyasini uyushtirishning turli shakllari mavjud:

1. darslar;
2. sinfdan va maktabdan tashqari ishlar;
3. sog'lomlashtirish va badantarbiya tadbirlari;
4. mustaqil xarakat faoliyati va boshqalar.

O'qituvchining e'tibori ana shu shakllar orqali, o'z yosh imkoniyatlariga ko'ra ongli va faol harakat qiluvchi, o'zini erkin tuta oladigan, o'ziga bo'lgan ishonchni namoyon etuvchi, harakat ko'nikmalarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtiradigan, hayotda uchraydigan qiyinchiliklardan cho'chimay, ularni bartaraf qila oladigan, doimo ijodiy izlanishdagi bolani tarbiyalashga yo'naltirilgandir. Jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiya tizimining maqsadi, vazifalari va prinsiplarini o'rganadi hamda tarbiyaning boshqa turlari (aqliy, axloqiy, estetik va mehnat) bilan jismoniy tarbiyaning qonuniy aloqasini ochib boradi. Jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiya vositalari va ulardan foydalanish shakllarini o'rganishga alohida e'tibor beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 30 sentyabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" tantanali marosimdagi nutqi.
2. Ijtimoiy pedagogika O'quv qo'llanma; F.Egamberdiyeva, M.Toshov, U.Mamanazarova 2023 "EFFECT-D" nashriyoti, 2023
3. Sharipov Shavkat Safarovich, Davlatov Karim, Nasriddinova Gulchehra Salohuddinovna "Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari" O'quv qo'llanma
4. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017.
5. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik. Toshkent., "Iqtisod -moliya" 2008 yil - 300 b.